

## OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA O'QUV JARAYONLARINI SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

Isroilov Islomiddin Kamoliddin o'g'li

Isroilov Yusufjon Kamoliddin o'g'li

Jizzax davlat pedagogika instituti

Ta'lim muassasalarining boshqaruvi mutaxassisligi 1-bosqich magistrantlari

(+998995051732, isroilovislomiddin1@gmail.com)

### ANNOTATION

This article discusses the current reforms in the higher education system, as well as the problems of improving the quality of education, ways to overcome them and the effective use of foreign experience in this area, as well as ideas and feedback to determine its prospects, including improvement of educational processes, design of training sessions, organization of research work in accordance with the requirements of the time, as well as the development of professional qualities of students and logical thinking operations.

**Keywords:** quality of education, foreign experience, system, international, information technology, quality, efficiency, credit module, higher education, scientific, educational process, state educational standard, qualification, teacher, program etc.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar va shuningdek ta'lim sifatini oshirish yo'lidagi muammolar, ularni bartaraf etish yo'llari hamda bu borada xorij tajribalaridan samarali foydalanish shuningdek uning istiqbolini belgilash yo'lidagi fikr va mulohazalar, jumladan, o'quv jarayonlarini takomillashtirish, o'quv mashg'ulotlarini loyihalash, ilmiy tadqiqot ishlarini davr talablari asosida tashkil etish, va shuningdek ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatleri hamda mantiqiy fikrlash operatsiyalarini rivojlantirish kabilar haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, xorijiy tajriba, tizim, xalqaro, axborot texnologiya, sifat, samaradorlik, kredit modul, oliy ta'lim, ilmiy, o'quv jarayon, davlat ta'lim standarti, malaka, pedagog, dastur va b.q.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются текущие реформы в системе высшего образования, а также проблемы повышения качества образования, пути их преодоления и эффективного использования зарубежного опыта в этой сфере, а также идеи и отзывы для определения его перспектив, в том числе совершенствование учебных процессов, проектирование учебных занятий, организация научно-исследовательской работы в соответствии с требованиями времени, а также развитие профессиональных качеств студентов и операций логического мышления.

**Ключевые слова:** качество образования, зарубежный опыт, системный, международный, информационные технологии, качество, эффективность, кредитный модуль, высшее образование, научный, образовательный процесс, государственный образовательный стандарт, квалификация, преподаватель, программа и другие.

### KIRISH

Bizga ma'lumki bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida ko'plab islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki har qanday jamiyatni rivojlantiradigan va yuksaltiradigan asosiy omil bu ta'lim tarbiya, manaviyat va marifat hisoblanadi. Ta'lim jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatning ko'rsatkichi va taraqqiyotning asosidir. U bog'lovchi bo'g'in sifatida ijtimoiy tajriba manaviy-axloqiy va madaniy an'analarning birligini va vorisiyligini xamda jamiyat va millat istiqbolini taminlaydi. Shuningdek mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali kadrlarni tayyorlash bevosita ta'lim tarbiya jarayoniga bog'liq bo'lib, bu boroda mamlakatimizda mustaqil teran fikrlaydigan, ijodkor, tashabbuskor, intiluvchan, barkamol shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda, va bu vazifalar esa davlatimiz rahbarining qator farmon va qarorlarida o'z aksini topgan.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yuksalishida zamonaviy bilim va yangicha yondashuvlarga extiyoj mavjud. Shu sababli ta'lim sifatini va uning samaradorligini oshirishda o'quv jarayonlarini davr talablariga mos ravishda tashkil etish, davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlarini yanada takomillashtirish, yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va bu borada zamonaviy innovasion pedagogik va axborot texnologiyalaridan, shuningdek ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish ertangi istiqbolli vazifalarimizni hal etishga qo'yilgan dastlabki qadamlar desak mubolag'a bo'lmaydi.

### OLIV TA'LIMDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHATLAR

Bugungi kunda Oliy ta'lim tizimida samarali islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda aytib o'tish joizki Respublikamizda OTMlar soni o'tgan yillarga qaraganda sezilarli darajada ortdi. Ya'ni 2019-yil 10-may holatiga ko'ra Respublikamizda faoliyat yuritayotgan OTMlar soni 102 taga yetdi. Va shuningdek bitiruvchi yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish ko'rsatkichi 2016-yilda 9 foizni tashkil etgan bo'lsa 2019-yilda bu ko'rsatkich 20 foizni tashkil qilmoqda. 2018-yilda xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari asosida bakalavr va magistr tayyorlash bo'yicha qo'shimcha qabul kvotalari ajratildi.

O'quv jarayonlarida ham qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Vaqt meyorlari o'zgardi, 100 ballik tizimdan voz kechilib 5 baholik tizimga o'tildi. Imtihon jarayonlari ham shaffof tarzda amalga oshirilmoqda ya'ni bunda dars o'tgan professor-o'qtuvchining ishtirokini istisno etadigan tizimga o'tildi, va yana shuningdek Kredit modul tizimining joriy etilishi ham oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonlarining sifati va samaradorligini oshirishga bo'lgan ijobiy o'zgarishlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi. Kredit bu talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun

ajratilgan minimal vaqt o'lhovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit modul tizimi aynan mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

Birinchisi: talabalar va o'qtuvchilarning mobilligini, ya'ni bir oliy ta'lim muassasasidan boshqa OTMga hech qanday to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;

Ikkinchisi: talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama- kredit aniq tarzda hisoblab boriladi. Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi.

Modul bu bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qtuvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio maruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Umuman olganda mazkur tizim talabaning kasbiy jihatdan yuksalishiga va uning kamolotga erishishiga yo'naltirilgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak XX asrning 90-yillaridan boshlab

**ta'lim sifati**, intellektual resurslar sifati, asosiy omil sifatida namoyon bo'la boshladi.

**Ta'lim sifati**- ijtimoiy kategoriya xisoblanib, jamiyatda ta'lim jarayonining xolati va natijasini xamda shaxsning kasbiy maishiy va fuqorolik kompetentligini shakillanishi va individual tarzda rivojlanishini shuningdek jamiyat talabi va extiyojiga mos kelishini aniqlaydi. Ta'lim sifati ta'lim muassasasining o'quv- tarbiyaviy faoliyatini uning turli qirralarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar majmui orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkichlarga ta'lim oluvchilar kompetentligining rivojlanishini ta'minlovchi ta'lim mazmuni o'qitish shakli va uslublari material-texnik baza, xodimlar tarkibi kabilar kiradi.

**Oliy ta'limda ta'lim sifati** – ta'lim modelining kontekstual ko'rsatkichlari, institutsional maqsad va vazifalari xamda ta'lim tizimining aniq standartlari, ta'lim muassasalari, o'quv dasturlari, va fanlari bilan bog'liq bo'lgan ko'p qirrali shu bilan birga yuqori darajali dinamik tushunchadir.

Ta'lim sifatini belgilovchi omillarga ta'lim tizimi komponentlari bilan birga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

ta'lim beruvchilar;

DTS, o'quv reja va o'quv dasturlar;

darslik, o'quv qo'llanma va shu kabilar;

o'qitish vositalari;

fanlar bo'yicha nazariy materiallar;

fanlar bo'yicha amaliy materiallar;

fanlar bo'yicha didaktik materiallar;

laboratoriya va ustaxona jixozlari;

amaliyotlar;

axborot – kommunikatsion vositalari.

Ta'lim jarayoniga bunday yandashuvlar kadrlar tayyorlashning meyoriy, tashkiliy, o'quv – uslubiy, axborot va moddiy texnik sharoitlar tizimining yaratilishini taminlashdan iboratir. Ta'lim sifati birinchi navbatda bilim soxiblari, tarqatuvchilarining sifati, saviyasi va malakasi bilan belgilanadi. Bilim sohiblari deganda muayyan oliy o'quv yurtining professor-o'qtuvchilar tarkibi va ularning ilmiy salohiyati va bilim tafakkuri tushuniladi. Ular turli xil pedagogik texnologiyalar va uslublar yordamida ta'lim oluvchilarga bilim berishadi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar zamirida yana shuni takidlab o'tishimiz joizki joriy 2022-yilgi o'quv yilidan boshlab chet tili bo'yicha xalqaro yoki milliy sertifikatga ega bo'lmagan talabalar magistratura bosqichiga qabul qilinmasligi bo'yicha tegishli qonun qabul qilindi. Bu esa qaysidir ma'noda oliy ta'lim tizimi sifat jihatdan takomillashib borayotganligidan beradi. Negaki bugungi kunda juda ko'plab qiziqarli va foydali adabiyotlar chet tilida yozilganligi va talaba yoshlar ularni o'qib tahlil qilish uchun aynan xorijiy tilni bilishlari maqsadga muvofiqdir. Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda xalqaro grantlar va ta'lim dasturlari bo'yicha ijobiy ishlar amalga oshirilmogda. Ya'ni hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot sohasida keng ko'lamli islohatlar olib borilmogda. O'quv rejalarining takomillashuvi, ilmiy darajalar berishda bir bosqichli tizimga o'tish, ta'lim jarayonida axborot ta'minoti va boshqa jihatlar oliy ta'lim muassasalarida Tempus va Erasmus + dasturlari bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalarda o'z aksini topmogda. Tempus- bu G'arbiy Bolqon mintaqasi, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharqdagi hamkor davlatlarda oliy ta'limni isloh etishga qaratilgan va asosan, universitetlararo hamkorlik loyihalari orqali ko'maklashuvchi Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan dasturdir. O'zbekistonda Tempus dasturi 1994-yilda o'z ish faoliyatini boshlagan bo'lib, hozirgi kunga qadar 80-dan xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirib kelinmogda. Erasmus+bu Yevropa Ittifoqining ta'lim, kasbiy ta'lim, yoshlar va sportni rivojlantirishga qaratilgan hamda 2014-2020-yillar uchun mo'ljallangan yangi dastur.

Hozirgi kunda qadar, ular O'zbekiston oliy ta'limini islohlashtirish bo'yicha Yevropa Ittifoqining asosiy vositalaridan hisoblanadi. O'zbekiston OTMlari, o'qtuvchilari va talabalar Erasmus+ dasturining quyidagi 3 ta yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etish imkoniyatiga ega: Xalqaro kredit mobilligi (International Credit Mobility) -Yevropaning bir yoki bir nechta universitetlari bilan almashinuv dasturi, Oliy ta'limni salohiyatini oshirish loyihalari (Capacity Building in Higher Education), Qo'shma magistrlik dasturlari (Joint Master Degree programme) hamda Jane Mone (Jean Monnet) dasturi. Oliy ta'lim salohiyatini oshirish (SVNE) yo'nalishining 2015-yildagi 1-tanlovi doirasida O'zbekiston OTMlari ishtirokida 12 ta loyiha faoliyat boshlagan bo'lib ulardan 10 tasi qo'shma va 2 tasi strukturaviy loyihalardir. MIND, ECCEM, CACTLE, ACADEMICA, MEDIPHYS, ECAP, IQAT, ESAMP, IMEP, NURSLIN. Amalga oshiriladigan mobilliklar davomida OTMlardagi o'quv dasturlarini solishtirish va yangilash hamda o'qitish va boshqaruv usullarini yaxshilash imkoniyatlari yuzaga keladi.

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va o'quv jarayonlarining samaradorligini oshirishda pedagogning boshqaruvchanlik mahorat ham bevosita ishtirok etadi. Dars jarayonida talabalarning bilish faoliyatini boshqarish bir necha omillarga bog'liq. Ularning eng

asosiylaridan biri o'quvchilarni o'z faniga qiziqitira olishdir. Mutaxassislar takidlaganidek faqat qiziqishgina psixik jarayonlar va ularning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va iroda kabi funksiyalariga ijobiy tasir ko'rsatadi. O'quv faoliyati boshqa faoliyatlar kabi faqat turlicha bo'lgandagina, qiziqarli bo'ladi. Bir xil usulda axborot berish va bir xil usuldagi xarakterlar tez oroda talabada zerikishni yuzaga keltiradi.

O'quv jarayoniga shu jumladan fanga bo'lgan qiziqishni shakillantirishda fanni va uning ayrim qismlarini o'rganishning zarurligi, muhimligi va maqsadga muvofiqligini talabalarga anglatish juda zarurdir. O'quv jarayonini samarali tashkil etishda o'tilayotgan material oldingi material bilan uyg'unlikda ya'ni ko'proq bog'langan holda tushuntirilsa u talabalarga yanada qiziqarliroq va ahamiyatli tuyuladi. Talabalar tomonidan o'zlashtirilgan va bajarilgan ishlarni tez-tez tekshirish ham ularda fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga ta'lim sifatini oshirishda Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ham bevosita ishtirok etadi:

Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional xamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim talablari: maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim shuningdek kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini, talim tuzulmasini va ta'limni amalga oshirish shartlarini, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatleri to'g'risidagi normalarni belgilaydi. Bulardan tashqari ta'lim sifatini taminlashda xalqaro tajribalar va yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda jahonning barcha ta'lim tizimida quyidagi uch tayanch tushuncha asosida oliy ta'lim sifatiga yondashiladi.

1. Sifatli o'quv va ilmiy faoliyatni olib borish uchun yaratilgan shart- sharoitlar;
2. O'quv jarayoni;
3. Sifatni ta'minlash tizimining amaldagi asosiy hamda boshlang'ich nuqtasi hisoblangan ta'lim natijasi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki bugungi kunda xorijda oliy ta'lim tizimida sifatni baholash jarayonida ikkita yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: continental (Yevropa mamlakatlari) va britaniya. Kontinental yondashuv uchun bir muncha ahamiyatli bitiruvchilarning mamlakat milliy iqtisodiyotida ishtirok etishga qanchalik tayyorgarligini aniqlash xisoblanadi. Buni oliy ta'lim muassasalarining davlat tomonidan moliyalashtirilishi orqali izohlash mumkin. Britaniya yondashuvi uchun sifat ko'proq mustaqillik va avtonomlikda aniqlanadi, ya'ni universitetlar o'z rivojlanishlari va nazorat shakillarini tanlashda erkin xisoblanishadi. Bu esa Buyuk Britaniyada oliy ta'lim tizimi davlat tomonidan moliyalashtirishga kamroq bog'liq ekanligi bilan izohlanadi. Shu naqtayi nazardan ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda mamlakatimizda ta'lim sifatini yuksaltirish borasidagi amalga oshiriladigan ishlarni umumlashtirish va hayotga tadbiq etish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda keyingi paytlarda o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ta'lim dasturlari va o'quv - metodik materiallarni keng joriy etish muhim vazifalar etib belgilandi. Bu esa o'z navbatida ta'lim muassasalarida o'qitiladigan barcha fanlardan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va ular asosida ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy

talablarga shuningdek pedagogik va axborot texnologiyalariga alohida e'tibor qaratish lozimligini taqozo etadi.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki yuqorida keltirib o'tilgan vazifalarni amalga oshirish va bu orqali malakali mutaxassislarni tayyorlashda ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, uning asosida o'quv mashg'ulotini yuksak darajada tashkil qilish va buning uchun ta'lim muassasalarida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Negaki o'quv mashg'uloti jaroyoni pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni bo'lib, uni tashkil qilish va boshqarishga to'g'ri innovasion yondashuv ta'lim oluvchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ishlashga jalb qiladi. Shuningdek ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarining sifatini oshirishdagi mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, bu yo'ldagi pirovard maqsadlarni aniq belgilash buning uchun yetakchi xorijiy mamlakatlarda tan olingan ilg'or tajribalardan foydalanish, shuningdek o'qitish va o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan turli texnologiya va usullardan foydalanish ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirishga olib keladi. Fikrimiz so'ngida shuni ta'kidlashimiz joizki mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohatlar birinchi navbatda, yetuk malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash va ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

### REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risidagi"gi qonun. O'RQ-637-son. (Qonun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son).
2. Yo'ldoshev O'.J., Abdurashidov A. va boshqalar. "Umumiy Pedagogika" Toshkent 2017. 312 b.
3. Yo'ldoshev O'.J., Abdurashidov A. va boshqalar. "Umumiy Pedagogika" Toshkent 2017. 330 b.
4. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. "Ta'lim sifatini boshqarish". Toshkent 2006.
5. Peregudov. L.V., Saidov. M.X., "Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti" T. Moliya, 2002. 75-76 b.
6. Saidov. M. X. " Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv". T. Tafakkur bo'stoni. 2011. 132 b.